

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

QOBILOV NODIRBEK SOBIROVICH

**NEFT VA GAZ QUDUQLARINI BURG‘ULASH UCHUN SAMARADOR
MOYLOVCHI MATERIALLAR VA OG‘IRLASHTIRILGAN
BURG‘ULASH ERITMALARINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)
Content of the dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Qobilov Nodirbek Sobirovich

Neft va gaz quduqlarini burg'ulash uchun samarador moylovchi materiallar
va og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarini ishlab chiqish.....3

Кобилев Нодирбек Собирович

Разработка эффективных смазывающих материалов и утяжеленных
буровых растворов для бурения нефтегазовых скважин..... 27

Kobilov Nodirbek Sobirovich

Development of effective lubricants and weighted drilling fluids
for drilling oil and gas wells51

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

QOBILOV NODIRBEK SOBIROVICH

**NEFT VA GAZ QUDUQLARINI BURG‘ULASH UCHUN SAMARADOR
MOYLOVCHI MATERIALLAR VA OG‘IRLASHTIRILGAN
BURG‘ULASH ERITMALARINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/T737, raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tkti.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Hamidov Bosit Nabiyevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yunusov Miraxmad Po'latovich
texnika fanlari doktori, professor

Yuldashev Tashmurza Raxmonovich
texnika fanlari doktori, professor

Saydaxmedov Elyor Egamberdiyevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "18" 01 soat 9⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32. Tel.: (99871) 244-79-20; faks: (99871) 244-79-17; e-mail: tkti_info@edu.uz. Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ma' muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali)

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (850-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32. Tel.: (99871) 244-79-20

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "18" 12 kuni tarqatildi.
(2024 yil "18" 12 daqi № 489-raqamli reestr bayonnomasi)



[Handwritten signatures of Turobjonov S.M., Qodirov X.I., and Raxmonberdiyev G.R.]

Turobjonov S.M
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., akademik

Qodirov X.I
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., prof.

Raxmonberdiyev G.R.
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Neft va gaz sanoatini rivojlanishi sifatli moylash materiallari ishlab chiqarish, neft mahsulotli chiqindilarni qayta ishlash hamda neft va gaz quduqlarini sifatli va halokatlarsiz burg'ulash bilan chambarchas bog'liqdir. Neft va gaz zahira qatlamlarini burg'ulash va ochishda hozirgi kunda dunyo miqyosida 100 turdan ortiq moylovchi materiallar ishlab chiqarilmoqda hamda yangi samarador turlari kashf qilinmoqda. Moylovchi materiallar neft va gaz quduqlarini burg'ulovchi jihozlarning ishlash muddatini hamda burg'ulash tezligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Samarador moylovchi materiallar neft va gaz quduqlarini burg'ulash jarayonida uchraydigan turli xil halokatlarni oldini olishi va burg'ulash ishlari sifatini yaxshilashi bilan birga ularni zamonaviy talablarga javob beradigan turlarini yaratishga ham alohida ahamiyat berilmoqda.

Bugungi kunda neft-gaz quduqlarini burg'ulash jarayonlari samaradorligini oshirish, jihozlarning ishlash muddatini uzaytirish, ishlab chiqarishning energiyatejamkor texnologiyasini qo'llashga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada neft va gaz quduqlarini burg'ulashda sanoatning mavjud va arzon ikkilamchi mahsulotlaridan foydalanib samarador moylovchi materiallar olish, mineral qatlam suvlaridan barqaror og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalari ishlab chiqarishning energiya sarfni qisqartirish imkonini beruvchi kam bosqichli texnologiyalarini jadallashtirish va sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda neft-gaz sohasini rivojlantirish, mahalliy xomashyolar va ikkilamchi mahsulotlardan foydalanib neft-gaz quduqlarini burg'ulashda yangi materiallarni olish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va sifatini oshirish hamda turlarini kengaytirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqdi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada tuzli, yuqori bosimli qatlam va yuqori haroratli hududlarda foydalanish uchun barqaror moylovchi materiallar tarkibini tanlashda mahalliy xomashyo resurslardan foydalanish, burg'ulash eritmalarini olish, fizik-kimyoviy, ishchi xossalarini yaxshilash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2019 yil 1 maydagi PF-4302-son «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 21 apreldagi PF-2916-son «2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4388-son «Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida».

ta'minlash, neft va gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022 yil 7 iyuldagi PQ-309-son «Neft va gaz sohasida ta'lim ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharxi². Neft va gaz quduqlarini burg'ulash uchun moylash materiallari olish va burg'ulash suyuqliklarida foydalanish bilan neft gaz qazib chiqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy ishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, American Petroleum Institute, Missouri University of Science and Technology va New Mexico Institute of Mining and Technology (AQSh), American Canadian Petroleum Institute (Kanada), Imperial College London va Herriot-watt University (Buyuk Britaniya), Xitoy neft universiteti (Xitoy), Neft va gaz milliy tadqiqot insituti (Polsha), Aalborg University (Daniya), Norvegiya fan va texnologiya universiteti (Norvegiya), Gubkin nomidagi Moskva neft va gaz instituti, Tyumen neft va gaz instituti (Rossiya), O'zbekiston Respublikasi fanlari akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, O'zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya institutida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Neft gaz quduqlarni burg'ulashda yuqori turg'un moylash xususiyatiga ega og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalaridan foydalanish, eritmalarining texnologik xususiyatlarini boshqarish bilan burg'ulash samaradoriligini oshirish, reagentlarni modifikatsiyalash, moylovchi materiallar tarkibidagi komponentlarning moylash xususiyatiga ta'sir mexanizmi asoslash bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan: burg'ulash eritmalarining fizik-kimyoviy va texnologik ko'rsatkichlarini boshqarish tizimi ishlab chiqilgan American Petroleum Institute (AQSh), Xitoy neft universiteti (Xitoy), burg'ulash suyuqliklari uchun samarador kimyoviy reagentlar va moylovchi materiallar yaratilgan American Canadian Petroleum Institute (Kanada) va Imperial College London va Herriot-watt University (Buyuk Britaniya), tarkibdagi komponentlarni moylash xususiyatiga ta'sir mexanizmi bo'yicha moylovchi materiallar asosini tanlash ilmiy asoslari yaratilgan Neft va gaz milliy tadqiqotn insituti (Polsha), Aalborg University (Daniya), quduqlarni burg'ulashda samarador moylovchi materiallar va og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarini tarkibi ishlab chiqilgan Norvegiya fan va texnologiya universiteti (Norvegiya), Gubkin nomidagi Moskva neft va gaz

²Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. www.api.org, www.stanford.edu, www.utexas.edu, www.mst.edu, www.uh.edu, www.nmt.edu, www.acbpt.com, www.imperial.ac.uk, www.inig.pl, www.ntnu.edu, www.gubkin.ru, www.togi.ru, www.english.upc.edu.cn, www.en.cug.edu.cn, www.iipe.ac.in, www.kfupm.edu.sa, www.teqsa.gov.au, www.put.ac.ir, www.ionx.uz, www.tdtu.uz, www.tkti.uz.

instituti, (Rossiya) va O‘zbekiston Respublikasi fanlari akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti (O‘zbekiston).

Dunyoda tabiiy neft-gaz quduqlarini burg‘ulash jarayonlarini jadallashtirish, uning samaradorligini oshirish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: tuzli, yuqori bosimli qatlam va yuqori haroratli hududlarda foydalanish uchun kimyoviy reagentlar olishda sanoatning mavjud va arzon ikkilamchi mahsulotlaridan foydalanish, barqaror moylovchi materiallar tarkibini faollashtiruvchi qo‘shimchalar bilan boyitish, mineral qatlam suvlaridan barqaror og‘irlashtirilgan burg‘ulash eritmalari ishlab chiqarish omillarini aniqlash va sharoitlarni maqbullashtirish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Neft va gaz sohasi uchun moylovchi materiallar va kimyoviy reagentlar ishlab chiqish, burg‘ulash jarayonlari samaradorligini oshirish bo‘yicha P.A. Rebinder, O.K. Angelopoulo, Gray George, Paul Skalle, A.I.Bulatov, V.P. Ovchinnikov, E.G.Kister, V.N. Glushenko, V.M. Shkolnikov, Dina Kania, Robiah Yunus, Rozita Omar, Suraya Abdul Rashid, F.B. Growcock, Badrul Mohamad Jan, A.R. Reece, G.W. Green, M.D. Ruffin, B. De Wolfe, Jingyuan Ma, Junjie Xu, Shaocong Pang, Wei Zhou, Boru Xia, V.V. Ostrikov, R.S. Axmadeev, G.D. Dedusenko, S.Yu. Juxoviskiy, L.K. Miskarli, I.M. Timoxin, V.D. Gorodnov, N.F. Semenko, V.M. Kapustin, I.D. Fridman, I.N. Reznichenko, M. M. Gaydarov, K.S. Axmedov, U.D. Mamadjanov, S.S. Negmatov, A.K. Rahimov, G. Raxmonberdiev, M.P. Yunusov, B.N. Xamidov, S.M. Turobjonov, S. Abduraximov, Sh.M. Saydaxmedov, Y.K. Raximov, M.A. Silin, A. Raximov, Sh.Umedov, N. Yodgorov, K.S.Negmatova, T.R. Yuldashev va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ular tomonidan, quduqlarni burg‘ulashda yuqori turg‘un moylash xususiyatiga ega burg‘ulash eritmalaridan foydalanishning nazariy asoslari rivojlantirilgan, burg‘ulash eritmalari eritmalarining texnologik xususiyatlarini boshqarish tizimlari yaratilgan, burg‘ulash reagentlari modifikatsiyalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Shu bilan birga burg‘ulashda aniq bir funktsiyani bajaradigan kimyoviy reagentlar olish, samarador moylovchi materiallar asosidagi burg‘ulash eritmalarida komponentlarning moylash xususiyatiga ta‘sir mexanizmi isbotlash, og‘irlashtirilgan burg‘ulash eritmalarining fizik-kimyoviy va texnologik ko‘rsatkichlarini nazorat qilish bilan texnologik tizimni takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining FA-A13-T147 «Neft va GK xomashyosini distillashning qoldiq ulushi asosida moylash materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish» amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy xom ashyolar va ishlab chiqarish chiqindilari asosida neft va gaz quduqlarini burg‘ulash uchun samarador moylovchi materiallar va og‘irlashtirilgan burg‘ulash eritmalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy xomashyolar va ishlab chiqarish chiqindilari asosida neft va gaz quduqlarini burgilash uchun samarador moylovchi materiallar ishlab chiqishning texnologik va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini ilmiy asoslash;

moylovchi materiallar va burgilash eritmalarini olishda ishlatiladigan mahalliy xomashyo, ishlab chiqarish chiqindilari va ingredientlarning fizik-kimyoviy xossalari o'rganish;

ishlab chiqilgan moylovchi materiallarning hamda og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlarining o'zgarish qonuniyatlarini organomineral ingredientlar tarkibi va miqdoriga bog'liqligini aniqlash;

ishlab chiqilgan moylovchi materiallarning fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlarini o'rganish, moylovchi materiallar va ular asosida og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining yangi tarkiblarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan moylovchi materiallar va ular asosidagi og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarini neft va gaz sanoati korxonalarida ishlab-chiqarish tajriba sinovidan o'tkazish;

neft va gaz quduqlarni burg'ulashda ishlatish uchun yaratilgan moylovchi materiallar va ular asosidagi og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash va ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida neft, neft shlami, ishlatilgan motor moyi, gossipol smolasi, kaustik va kaltsinatsiyalangan soda, Na-karboksimetiltellyuloza, suv, bentonit, qizil gil, barit, gematit, okalina, marmar kukuni, dolomit va og'irlashtirilgan burg'ulash eritmaları olingan.

Tadqiqotning predmetini neft va gaz quduqlarini burg'ulash uchun mahalliy xomashyolar va ishlab chiqarish chiqindilari asosida samarador moylovchi materiallar va ular asosidagi og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlarining o'zgarish qonuniyatlarini ingredientlar turi, tabiati va miqdoriga bog'liqligini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada zamonaviy fizik-kimyoviy, kimyoviy, statistik va texnologik tadqiqot usullari (IQ-spektroskopiyasi, gaz-suyuqlik xromatografiyasi, raman-spektrometriyasi, xromato-mass-spektrometriya va element tahlillari)dan va zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

neft, ishlatilgan motor moyi, gossipol qatroni va neft shlamlari asosida neft va gaz quduqlarini burg'ulash uchun ishqalanish koeffitsienti 1,2-1,3 marta kamaytirilgan samarador moylovchi materiallar tarkibi aniqlangan;

organomineral ingredientlarning tabiati, tuzilishi, miqdori va tarkibiga bog'liq, og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining texnologik xususiyatlari qovushqoqlik, suv uzatishi, siljishning statik kuchlanishi va barqarorlikning o'zgarishi asoslangan;

barqarorligi 1,20-1,25 marta yaxshilangan, yuqori moylovchi xususiyatli og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining tarkiblari aniqlangan;

og'irlashtiruvchi materiallarning turi, miqdori va tabiatini tanlash bilan yuqori moylash xususiyatiga ega burg'ulash eritmalarining texnologik xossalarini boshqarish asoslangan;

burg'ulash jarayonlarida moylovchi materiallardan foydalanish burg'ulash eritmasining tuzli va yuqori haroratga chidamliligini oshirishi isbotlangan;

mahalliy xom ashyolar va ishlab chiqarish chiqindilari asosida burg'ulash eritmaları uchun yuqori tribologik xususiyatlarga ega moylovchi materiallar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan samarador moylovchi materiallar asosidagi og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarini ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

neft shlami, ishlatilgan motor moyi, gossipol smolasi, kaustik va kaltsinatsiyalangan soda, Na-karboksimetiltellyuloza, suv, bentonit, qizil gil, barit asosida neft-gaz quduqlarini burg'ulash uchun samarador moylovchi materiallar ishlab chiqarish maqbul parametrlari aniqlangan;

neft-gaz quduqlarini burg'ulash uchun samarador moylovchi materiallarning MBR-1, MBR-2, MBR-3 va MBR-4 olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

neft-gaz quduqlarini burg'ulashda samarador moylovchi materiallar asosida yuqori moylash xususiyatiga ega barqaror og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining maqbul tarkiblari yaratilgan;

barqaror og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalaridan qo'llash bilan neft-gaz quduqlarini burg'ulash texnologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tahlilda zamonaviy fizik-kimyoviy usullar gaz xromotografiyasi, IQ- va mass-spektroskopiya, tribologik, qovushqoqlik, barqarorlik, siljishning statik kuchlanishi tahlillardan, eksperimental ma'lumotlarga statistik ishlov berishda jarayonlari kinetika va termodinamikasining zamonaviy nazariyalaridan foydalanilganligi, nazariy va tajriba tadqiqot natijalarining o'zaro mutanosibliги bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati neft, ishlatilgan motor moyi, gossipol smolasi va neft shlamlaridan foydalanib neft va gaz quduqlarini burg'ulash uchun moylovchi materiallar yaratishning ilmiy asoslari, fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlari, ingredientlar miqdori, tarkibi, kimyoviy tabiati, tuzilishi va turining burg'ulash eritmalarining tribologik va texnologik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etish xususiyatlari aniqlanganligi bilan izohlanadi;

tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan samarador moylovchi materiallar va og'irlashtirilgan burg'ulash eritmaları neft-gaz quduqlarining tuzli va yuqori haroratli qatlamlarini burg'ulash jarayonida sedimentasion turg'unligi tufayli burg'ulash eritmasining barqarorligini ta'minlaydi. Tuzilishi va tarkibi tufayli yuqori moylash xususiyatiga erishilgan va tribologik xususiyati 1,2-1,3 marta yaxshilangan. Bu esa o'z navbatida burg'ulashning mexanik tezligini oshiradi hamda sodir bo'ladigan turli xil halokatlarni oldini olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Neft-gaz quduqlarini burg'ulash uchun samarador moylovchi materiallar va og'irlashtirilgan burg'ulash eritmasi ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

neft-gaz quduqlarini burg'ulash uchun samarador moylovchi materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi «SANEG» XK MChJning «2025-2030 yillar istiqboli ishlanmalar rejasi»ga kiritilgan («SANEG» XK MChJning 2024 yil 24 iyundagi UCX № 015-0084-1741-2024 sonli ma'lumotnomasi). Natijada mahalliy moylovchi materiallar MBR-1, MBR-2, MBR-3, MBR-4 ishlab chiqarish imkonini bergan;

neft-gaz quduqlarini burg'ulashda yuqori moylash xususiyatiga ega og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarini ishlab chiqarish texnologiyasi «SANEG» XK MChJning «2025-2030 yillar istiqboli ishlanmalar rejasi»ga kiritilgan («SANEG» XK MChJning 2024 yil 24 iyundagi UCX № 015-0084-1741-2024 sonli ma'lumotnomasi). Natijada yuqori barqaror fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarini mahalliyashtirish imkonini bergan;

neft-gaz quduqlarini burg'ulashda yuqori moylash xususiyatiga ega og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarini ishlab chiqarish texnologiyasi «SANEG» XK MChJning «2025-2030 yillar istiqboli ishlanmalar rejasi»ga kiritilgan («SANEG» XK MChJning 2024 yil 24 iyundagi UCX № 015-0084-1741-2024 sonli ma'lumotnomasi). Natijada texnologik va tribologik xususiyatlari yaxshilangan og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 38 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston respublikasining Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 10 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, 21 ta tezis xalqaro va Respublikadagi anjuman to'plamlarida hamda 2 ta monografiya chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 167 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyatligi asoslangan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Neft va gaz quduqlarini burg'ulash uchun moylash materiallari, kimyoviy reagentlar va burg'ulash eritmalarining joriy holati**» deb nomlangan birinchi bobida neft-gaz quduqlarini burg'ulashda ishlatiladigan moylovchi materiallar, og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarini olish uchun kimyoviy reagentlar va ularning sinflari, og'irlashtiruvchi materiallar, oxirgi yillarda ishlab

chiqilgan materiallarning turlari, adabiyot manbalarning hozirgi holati hamda patent ma'lumotlarining tahlili keltirilgan.

Tahlil etilgan adabiyotlar asosida faol moylovchi materiallar va og'irlashtiruvchilarva boshqa kimyoviy reagentlar ishtirokida yuqori moylash xususiyatiga ega burg'ilash eritmalarida kechadigan jarayonlar, ishlab chiqiladigan moylovchi va og'irlashtiruvchi materiallar xususiyati va tuzilishining o'zgarish jarayonlariga yangi ilmiy texnik va ilmiy uslubiy yechim ishlab chiqish mazkur dissertatsiya ishining maqsadini belgilab berdi.

Dissertatsiyaning **«Dastlabki xomashyolar tavsifi va tadqiqotlarni o'tkazish usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba tadqiqotlarini o'tkazish uchun ob'ektlar tanlash bayon qilingan va asoslangan. Neft-gaz quduqlarini burg'ilash uchun moylovchi materiallar, og'irlashtirilgan burg'ilash eritmaları va ishlab chiqiladigan yuqori moylash xususiyatiga ega burg'ulash eritmalarining fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlarini tadqiqot qilish usullari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Moylovchi materiallar va burg'ulash eritmalarini ishlab chiqish uchun mahalliy xom ashyo va sanoat chiqindilari asosidagi organik ingredientlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish»** deb nomlangan uchinchi bobida mahalliy xomashyolar va ishlab chiqarish chiqindilari, organomineral ingredientlari va moylovchi materiallarning fizik-kimyoviy xususiyatlari va eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.

Samarador moylovchi burg'ulash reagenti (MBR) ishlab chiqish maqsadida mavjud xomashyo va ishlab chiqarish chiqindilari, organomineral ingredientlaridan tanlangan materiallarning fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilingan.

Fizik-kimyoviy, Gaz xromotografiya-mass spektroskopiya va IQ-spektroskopiya tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moylovchi material tarkibidagi 25-57% gacha neft mahsulotlari, gossipol smolasi 25 % gacha, solishtirma og'irligi $1,05\text{g/sm}^3$, 5 % li eritmasining shartli qovushqoqligi 22 sek, 5% li eritmasining vodorod ko'rsatgichi 9, rangi qoramtir jigarrang, quyuc oquvchan suyuqlik, "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MCh chiqindisi-neft shlami, ishlatilgan motor moylari, kaltsinatsiyalangan soda, kaustik soda hamda suv, shuningdek og'irlashtiruvchilarning tuzilishi tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlari tadqiq qilingan. Neft shlami va ishlatilgan motor moyinning asosiy sifat ko'rsatkichlari talab qilingan GOSTlar meyyorlari bilan aniqlandi va natijalar 1-jadvalda keltirirlgan.

Moylovchi materiallar ishlab chiqish uchun neft shlami suv va mexanik zarrachalardan tozalangan holda foydalaniladi.

Mineral og'irlashtirgichlar qizil gil, marmar kukuni, dolomit, barit, okalina, va gematitlarning fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilingan.

Mazkur bobda burg'ulash eritmalarini og'irlashtirish uchun ishlatiladigan organomineral xomashyo komponentlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari tadqiqoti natijalarini solishtirma nisbiy kattaliklari ham keltirilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki sinov uchun olingan temir tarkibli tabiiy ruda gematit, okalina va barit asl zichligi $4,40\text{-}4,60\text{ g/sm}^3$, $4,30\text{-}4,50\text{ g/sm}^3$, $3,85\text{-}4,15\text{ g/sm}^3$ og'irlashtirgichlar import qilinadigan B sinfli barit konsentratlari GOST 4682-84

zichligiga 4,0-4,2 g/sm³ yaqin, neft va gaz quduqlarini qazish sanoatida og'irlashtirgich sifatida ishlatish mumkin.

1-jadval

Xomashyolarning asosiy sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Uslub	Neft shlami	Ishlatilgan motor moyi
Tashqi ko'rinishi	vizual	Qoramtir, Quyuq	Quyuq oquvchan
Zichligi, 20 ⁰ C da, g/ sm ³	GOST 3900	0,98	0,92
Kinematik, qovushqoqlik t _{+50C} , mm ² /c	GOST 33-82	-	45,1
Suvsizlantirilgandagi zichligi, g/sm ³	GOST 3900	0,92	-
Suv miqdori, %	GOST 2477	25-30	0,05
Oltinugurt miqdori,	GOST 1437	1,23	
Mexanik zarrachalar miqdori, %	GOST 6370	15-20	0,62
Xlorid tuzlarining miqdori, mg/dm ³	GOST 21534	360	-
Asfalten miqdori, %	GOST 11858	5,82	
Qatronlarining miqdori, %	GOST 11858	17,02	
Yonish nuqtasi, ⁰ C	GOST 4333	+160	+195
Parafin miqdori, %	GOST 11858	8,0	

Shularga bog'liq holda O'zbekistan Respublikasida mavjud ko'rsatilgan xomashyo zahiralari hisobga olib ularni yuqori zichlikdagi burg'ilash eritmaları uchun og'irlashtiruvchi material sifatida foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning «**Organomineral ingredientlardan foydalanib moylovchi materiallar va og'irlashtirilgan burg'ilash eritmalarini tadqiq qilish hamda maqbul tarkiblarini ishlab chiqish**» deb nomlangan to'rtinchi bo'limida mahalliy xomashyolar va ishlab chiqarish chiqindilari asosida ishlab samarador moylovchi materiallar va ulardan foydalanib og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining maqbul tarkiblarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar keltirilgan. Shuningdek burg'ulash eritmalarining fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlariga organomineral og'irlashtirgichlarning ta'siri tadqiqot natijalari ham bayon qilingan. Hozirgi kunda neft va gaz quvurlarini burg'ulashda ishlatilish kelayotgan moylovchi materiallar neft, SMAD-1, grafit va ishlab chiqilgan moylovchi materialning asosiy xususiyatlari tadqiq qilindi va natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Moylovchi material (MBR) va yuqori moylash xususiyatiga ega burg'ulash eritmalarini ishlab chiqish uchun tanlangan xom ashyolar, ishlab chiqarish chiqindilari va og'irlashtirgichlar organomineral ingredientlaridan foydalanib og'irlashtirilgan burg'ilash eritmalarining asosiy ko'rsatkichlari zichlik, qovushqoqlik, suv uzatishi-suv bera olish qobiliyati, statik siljish kuchlanishi, stabillik, moylash xususiyati, elektrstabilligi, sedimentatsiya va vodorod ko'rsatkichi tadqiq qilingan. Shuning uchun biz tomonimizdan 10-25 massa qisml

gossipol smolasi va 30-55 massa qismlı neftr yoki ishlatilgan motor moyi hamda neft shلامي shuningdek 5-10 % li ishqorlardan va suvdan tashkil topgan moylovchi materiallarning yangi modul tarkibi experimentlar natijasida tanlab olingan. Moylovchi materiallarning burg'ulash eritmasining qovushqoqlik, suv uzatish (suv beraoluvchanlik) hamda vodorod ko'rsatkichiga ta'siri tadqiq qilindi (API RP 13B-1:2019³, GOCT 33213-2014 (ISO 10414-1:2008)⁴, GOCT 33697-2015 (ISO 10414-2:2011)⁵ va uning natijalari 1-rasmıda keltirilgan. Ishlab chiqiladigan moylovchi materiallar fizik-kimyoviy xususiyatlari va og'irlashtirilgan burg'ilash eritmalari texnologik ko'rsatkichlari tadqiq qilishda yuqorida ko'rsatilgan moylovchi materiallar (MBR), neft, qatlam suvi, barit, qizil gil, marmar kukuni, dolomit, okalina va gematitdan foydalanilgan, so'ngra MBR asosidagi burg'ilash eritmalarining fizik-kimyoviy xususiyatiga tanlangan og'irlashtirgichlarning ta'siri tadqiq qilingan. (1-rasm)

2-jadval

Moylovchi materiallarning asosiy fizik kimyoviy xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Neft	SMAD	Grafit	MBR-1	MBR-2	MBR-3	MBR-4
Tashqi ko'rinishi	Qo'n g'ir, suyuq	Qo'n g'ir, quyuq	Qora, kukunsi mon	Qoramt ir jigar rang, quyuq	Qong'ir jigar rang, quyuq	Qong'ir jigar rang, quyuq	Qong'ir jigar rang, quyuq
Zichlik, g/sm ³	0,88	0,9	2,26	1,07	1,04	1,05	1,08
Qovushqoqlik, t _{50C} , mm ² /c	41	45	-	48	67	49	73
Vodorod ko'rsatkichi, pH	6	6-7	6-7	8-9	8-9	8-9	8-9
Yonish harorati, °C	110	65	-	220	225	240	250
Mexanik zarrachalar miqdori, %	0,79	0,15	0,35	0,91	0,96	0,84	0,87

Moylovchi materiallar nafaqat ishqalanish koeffitsiyentini kamaytirishi balki burg'ulash eritmasining turg'unligi, reologik, suv uzatish, va vodorod ko'rsatkichlarini ham yaxshilaydi. Moylovchi materiallarni burg'ulash eritmasidagi miqdorini 1 dan 6% vodorod ko'rsatkichini 9 gacha oshiradi hamda suv uzatishini 3-4 gacha kamaytirish imkonini beradi.


Moylovchi material (MBR) miqdorini oshirish bilan burg'ulash eritmasining moylash xususiyati yaxshilanadi natijada ishqalanish koeffitsiyentining qiymati kichiklashadi. Moylovchi materiallar miqdorini 1 da 6%

³API RP 13B-1:2019 Field Testing Water-based Drilling Fluids.


⁴ГОСТ 33213-2014 (ISO 10414-1:2008) Межгосударственный стандарт контроль параметров буровых растворов в промысловых условиях растворы на водной основе.

⁵ГОСТ 33697-2015 (ISO 10414-2:2011) Межгосударственный стандарт контроль параметров буровых растворов в промысловых условиях растворы на углеводородной основе.

gacha oshirish ishqalanish koeffitsiyentini mos ravishda MBR bilan 0,16 dan 0,03 gacha, neft bilan 0,06 gacha, SMAD bilan 0,04 gacha hamda grafit bilan 0,08 gacha kamaytirish imkonini beradi. Yuqoridagi bog'liqlikdan shuni xulosa qilish mukimki MBR bilan olingan burg'ulash eritmasi tarkibiy jihatiga ko'ra yuqori samaradorlik ko'rsatadi ya'ni tarkibidagi gossypol smolasi ishqorlar natijasida suvda eruvchan yog' kislotalari hamda ishlatilgan motor moylari qattiq fazalar yuzasida silliq plenka hosil qiladi natijada eritma tizimi bo'ylab yuqori moyylash samaradorligi kelib chiqadi. (2-rasm).



1-rasm. Moylovchi material miqdorining burg'ulash qovushqoqligi va suv uzatishiga bog'liqligi.




2-rasm. Moylovchi material miqdorining ishqalanish koeffitsiyentiga bog'liqlik grafigi. Bu yerda, 1-grafitli, 2- neftli, 3- SMAD; 4-MBRli burg'ulash eritmalari

Moylovchi material (MBR) asosida olingan burg'ulash eritmasidagi neft emulsiyalarining elektr barqarorligining o'zgarish qonuniyatlari 3 va 4-rasmda keltirilgan. Moylovchi material miqdorini 1 dan 6% gacha oshirish burg'ulash eritmasidagi neft emulsiyasi elektr barqarorligini 150 V dan 440 V va 550 V gacha oshirishi mumkin. Neft emulsiyasi elektr barqarorligi normal holatda bo'lgan burg'ulash eritmasiga og'irlashtiruvchi material barit 10 dan 30% gacha


qo'shilganda uning qiymatini 140-150 V gacha tushirishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Ishlab chiqilgan yuqori moylash yuqori moylash xususiyatiga ega burg'ulash eritmasining reologik va texnologik ko'rsatkichlariga og'irlashtiruvchi materilallarning ta'siri tadqiq qilindi. O'tkazilgan eksperimental tadqiqotlarga ko'ra moylovchi materillar asosida olingan burg'ulash eritmalariga qizil gil miqdorini 35% gacha, marmar kukuni 45% gacha, dolomitni 55% gacha, baritni va okalinani 65% gacha va gematitni 70% gacha oshirish burg'ulash eritmasining oquvchanligini ta'minlagan holda ularning zichligini oshirib borish imkonini beradi.



3-Rasm. Moylovchi material (MBR-2) miqdorining neft emulsiyasining elektr barqarorligiga bog'liqligi.

— Grafitli, — Neftli, — MBR li



4-Rasm. Neft emulsiyasi elektr barqarorligining og'irlashtiruvchi barit miqdoriga bog'liqligi.


— MBR li, — Neftli, — Grafitli

Bunda eritmaning shartli qovushqoqligi mos ravishda 70-80 s, 72-81 s, 75-84 s, 74-85 s, 73-86 s oralig'ida bo'ladi. 10 minutdagi siljishning statik kuchlanishi (SSK) miqdori og'irlashtirgich miqdorini oshishi bilan mos ravishda 25-32 mgs/sm², 30-42 mgs/sm², 31-44 mgs/sm², 34-48 mgs/sm² va 36-49 mgs/sm² bo'ladi. Eritmaning suv uzatish ko'rsatkichi 30 minutda 3-4 sm³ oralig'ida vodorod ko'rsatkichi esa 9-10 oralig'ida bo'ladi. Eksperimental tadqiqot natijalaridan xulosa qilish mumkinki, moylovchi materiallar va fosfogips, qizil gil, karbonat polimer shlami, marmar kukuni, dolomit, barit, okalina va gematit asosidagi og'irlashtirgichlari ishtirokida zichligi mos ravishda 1,38 g/sm³, 1,42 g/sm³, 1,54 g/sm³, 1,60 g/sm³, 1,71 g/sm³, 2,16 g/sm³, 2,25 g/sm³ va 2,41 g/sm³ gacha bo'lgan og'irlashtirilgan va normal qovushqoqlikka ega burg'ulash eritmalarini olishda foydalanish mumkin.

Quyida moylovchi materiallar va har xil og'irlashtirgichlar asosidagi burg'ulash eritmasi qovushqoqligining ularning zichligiga bog'liqligi tadqiqot natijalari keltirilgan. (5-rasm).

5-rasmdan ko'rinib turibdiki, moylovchi material (MBR) asosida olingan burg'ulash eritmalarining talab qilingan zichlik va qovushqoqlik xossalari har xil og'irlashtiruvchi materiallardan foydalanish orqali boshqarish imkonini beradi.


Moylovchi material (MBR)ning miqdorini 1% dan 7% gacha oshirish burg'ulash eritmasining barqarorlik ko'rsatkichini mos ravishda grafit bilan 0,04 g/sm³ gacha, neft bilan 0,03 g/sm³ gacha va MBR bilan 0,017 g/sm³ gacha tushirish imkonini beradi. Eritmalarning barqarorlik ko'rsatkichi qanchalik kichkina bo'lishi ishlatilayotgan moylovchi materialning shunchalik samarador ekanligidan dalolat beradi. (6-rasm).




Bu yerda: 1- fosfogips; 2- qizil gilmoya, 3-Karbonat polimer Shlami, 4-marmar kukuni; 5- dolomit; 6- bariti; 7- okalina; 8- gematit

5-rasm. Moylovchi material asosida olingan burg'ulash eritmasi zichligining qovushqoqlikka bog'liqligi.

Moylovchi material (MBR) miqdorining har xil og'irlashtirgichlar bilan og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining barqarorligiga bog'liqligi keltirilgan.



6-rasm. Moylovchi material miqdorining og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining barqarorligiga bog'liqligi: 1-barit; okalina; 3-gematit.



7-rasm. Og'irlashtirgich zarrachalarining o'rtacha o'lchamining burg'ulash eritmalarining barqarorligiga bog'liqligi: 1-qizilgilmoya, 2-dolomit, 3-barit, 4-okalina, 5-gematit.

Moylovchi material (MBR) asosida olingan burg'ulash eritmasining barqarorlik ko'rsatkichini og'irlashtiruvchi materiallarning o'lchamiga bog'liqligi

keltirilgan. Burg'ulash eritmalarining barqarorlik jarayoniga qattiq fazalarning dispersligi ham katta ta'sir ko'rsatadi, zarrachalar o'lchamining 10 mkm gacha kamayishi barqarorlik ko'rsatkichini 0,01 g/sm³ gacha kamaytiradi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, og'irlashtirilgan burg'ulash eritmalarining barqarorligini ta'minlash uchun og'irlashtirgich zarrachalarining o'lchami 10-40 mkm oralig'ida bo'lishi isbotlandi. Shunda burg'ulash eritmasining talab qilingan barqarorlik ko'rsatkichining qiymati maksimal qiymati 0,06 g/sm³ ga erishiladi. (7-rasm).

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga muvofiq samarador moylovchi materiallar va ular asosida og'irlashtirilgan burg'ulash eritmaları ishlab chiqildi hamda ularning tarkiblari, texnologik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari 1-6 jadvallarda keltirilgan. Mineral qatlam suvi asosida moylovchi materiallar va baritdan foydalanib zichligi 1,48 dan 2,13 g/sm³ gacha va suv uzatishi 3-4 sm³/30 min, bo'lgan og'irlashtirilgan burg'ulash eritmaları olish imkonini beradi. Moylovchi materialning eritmadagi miqdor 5% bo'lganda bentonit (PBG) asosli burg'ulash eritmasining texnologik ko'rsatkichlari zichligi 1,10 g/sm³, shartli qovushqoqligi 23 s, suv uzatishi 3 sm³/30 min, vodorod ko'rsatkichi pH-9, ishqalanish koeffitsienti 0,01 va turg'unligi 0,005 g/sm³ ga teng. Burg'ulash eritmasiga barit miqdorini 50% dan 200% gacha oshirish uning zichligini 1,48 dan 2,13 g/sm³ gacha shartli qovushqoqlik qiymatini 23 dan 94 s gacha oshirish imkonini beradi. Bunda burg'ulash eritmasining vodorod ko'rsatkichi 9 saqlanib qoladi, ishqalanish koeffitsienti 0,010, korka qalinligi 0,6 mm dan 0,8 mm gacha oshadi va turg'unlik esa 0,05 g/sm³ gacha oshadi. (3-jadval).

3-jadval

Moylovchi material MBR, mineral qatlam suvi va barit asosida olingan og'irlashtirilgan burg'ulash eritmasining texnologik tavsiflari

№	Burg'ulash eritmasining tarkibi			Texnologik ko'rsatkichlar						
	Dastlabki eritma (Suv+Bentonit(PBG)+ Na ₂ CO ₃ + KMS)	MBR, %	Barit, %	γ, g/sm ³	T ₅₀₀ , s	B, sm ³ /30 min	K, mm	pH	K _{tr}	S g/sm ³
2	№1 Eritma	-	-	1,10	21	4	0,6	8	0,10	0,01
3	№1 Eritma	5	-	1,10	23	3	0,5	9	0,10	0,005
4	№1 Eritma	5	50	1,48	54	3	0,5	9	0,10	0,02
5	№1 Eritma	5	100	1,66	60	3	0,6	9	0,10	0,03
6	№1 Eritma	5	150	1,83	82	3	0,7	9	0,12	0,04
7	№1 Eritma	5	200	2,13	94	3	0,8	9	0,12	0,05

Moylovchi materialdan (MBR) foydalanib gematit og'irlashtirgichi asosidagi burg'ulash eritmalarining yangi tarkiblari ishlab chiqildi hamda ularning texnologik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Gematit asosidagi burg'ulash

eritmalarining yangi tarkiblari va ularning texnologik ko'rsatkichlari 4-jadvalda keltirilgan.

Moylovchi materiall (MBR), mineral qatlam suvi va gemamitdan foydalanib zichligi $2,35 \text{ g/sm}^3$ gacha va suv uzatishi $3-4 \text{ sm}^3/30 \text{ min}$, bo'lgan og'irlashtirilgan burg'ulash eritmaları olish imkonini beradi. Burg'ulash eritmasiga gematit miqdorini 50% dan 250% gacha oshirish uning zichligini 1,49 dan $2,35 \text{ g/sm}^3$ gacha shartli qovushqoqlik qiymatini 21 dan 91 s gacha oshirish imkonini beradi. Bunda burg'ulash eritmasining vodorod ko'rsatkichi 9 saqlanib qoladi, ishqalanish koeffitsienti 0,010, korqa qalinligi 0,6 mm dan 0,8 mm gacha oshadi va turg'unlik esa $0,06 \text{ g/sm}^3$ gacha oshadi. (4-jadval)

Moylovchi material asosida olingan burg'ulash eritmasining tuzga chidamliligi tadqiq qilindi, tadqiqoti natijalari 5-jadvalda keltirilgan

Moylovchi material (MBR) va barit asosidagi burg'ulash eritmasining tuzga chidamliligini tadqiq qilish uchun burg'ulash eritmaga NaCl tuzini 5% da to 25 % gacha qo'shib uning texnologik ko'rsatkichlari tadqiq qilindi. Bunda har bir namunaga tuz qo'shilganda 10-15 daqiqa tuz to'liq eriguncha aralashtirgichda aralashtiriladi. Hosil bo'lgan eritmaning texnologik ko'rsatkichlari (zichlik, qovushqoqlik, suv uzatishi, korqa qalinligi, vodorod ko'rsatkichi, ishqalanish koeffitsiyenti va eritmaning barqarorligi) standart talablari bo'yicha aniqlanadi.

4-jadval

Moylovchi material (MBR), mineral qatlam suvi va gematit asosida olingan og'irlashtirilgan burg'ulash eritmasining texnologik tavsiflari

№	Burg'ulash eritmasining tarkibi			Texnologik ko'rsatkichlar						
	Dastlabki eritma Suv+Bentoni t (PBG)+ (KMS)	MBR, %	Gema tit	γ , g/sm^3	T_{500} , s	B, $\text{sm}^3/$ 30 min	K, mm	pH	K_{tr}	S g/sm^3
1	№1 Eritma	-	-	1,10	21	4	0,6	9	0,10	0,01
2	№1 Eritma	5	50	1,49	52	3	0,5	9	0,10	0,02
3	№1 Eritma	5	100	1,67	57	3	0,6	9	0,10	0,03
4	№1 Eritma	5	150	1,84	65	3	0,7	9	0,12	0,04
5	№1 Eritma	5	200	2,18	78	3	0,8	9	0,12	0,05
6	№1 Eritma	5	250	2,35	91	3	0,8	9	0,12	0,06

Barit bilan og'irlashtirilgan burg'ulash eritmasiga NaCl miqdorini 5% dan 25 % gacha oshirish uning zichligini 2,14 dan 2,18 g/sm^3 gacha oshiradi va shartli qovushqoqligini 94 dan 83 s gacha kamaytiradi suv uzatishini esa $3 \text{ sm}^3/30 \text{ min}$ dan $6 \text{ sm}^3/30 \text{ min}$ gacha oshiradi, korqa qalinligi 0,8 mm dan 1,0 mm gacha oshadi eritmaning vodorod ko'rsatkichi 9-8 gacha kamayadi, ishqalanish koeffitsienti 0,01 dan 0,12 gach oshiradi va turg'unligini esa 0,03 dan 0,07 g/sm^3 gacha oshadi. Bu texnologik ko'rsarkichlarning o'zgarishi eritmada borayotgan eritma tarkibidagi

moylovchi material va makromolekulalariga tuzning destruksion ta'siri bilan izohlanadi. (5-jadval).

Moylovchi material (MBR) va gematit asosidagi burg'ulash eritmasining tuzga chidamliligini tadqiq qilish uchun burg'ulash eritmaga NaCl tuzini 5% da to 25 % gacha qo'shib uning texnologik ko'rsatkichlari tadqiq qilindi.

5-jadval

Moylovchi material (MBR) va barit asosida olingan burg'ulash eritmasining tuzga chidamliligi

№	g'ulash eritmasining tarkibi			Texnologik ko'rsatkichlar						
	Dastlabki eritma (Suv+Bentonit (PBG)+ KMS+barit)	MBR, %	NaCl, %	γ , g/sm ³	T ₅₀₀ , s	B, sm ³ /30 min	K, mm	pH	K _{tr}	S g/sm ³
1	Dastlabki eritma (Suv+Bentonit (PBG)+ KMS+barit)									
2	№1 Eritma	5		2,13	94	3	0,8	9	0,12	0,03
3	№1 Eritma	5	5	2,14	92	3	0,8	9	0,12	0,04
4	№1 Eritma	5	10	2,15	90	4	0,9	9	0,14	0,05
5	№1 Eritma	5	15	2,16	86	4	0,9	9	0,14	0,06
6	№1 Eritma	5	20	2,17	85	5	1,0	8	0,14	0,06
7	№1 Eritma	5	25	2,18	83	6	1,0	8	0,16	0,07

6-jadval

Moylovchi material va gematit asosida olingan burg'ulash eritmasi texnologik ko'rsatkichlarini tuzga chidamliligi

№	Burg'ulash eritmasining tarkibi			Texnologik ko'rsatkichlar						
	Dastlabki eritma (Suv+Bentonit KMS+Gematit)	MBR, %	NaCl, %	γ , g/sm ³	T ₅₀₀ , s	B, sm ³ /30 min	K, mm	pH	K _{tr}	S g/sm ³
1	Dastlabki eritma (Suv+Bentonit KMS+Gematit)									
2	№1 Eritma	5		2,35	91	3	0,8	9	0,10	0,04
3	№1 Eritma	5	5	2,36	90	3	0,8	9	0,10	0,05
4	№1 Eritma	5	10	2,37	88	4	0,9	9	0,12	0,05
5	№1 Eritma	5	15	2,38	87	5	0,8	9	0,12	0,06
6	№1 Eritma	5	20	2,39	85	6	1,0	8	0,14	0,06
7	№1 Eritma	5	25	2,40	82	7	1,0	8	0,14	0,07

Gematit bilan og'irlashtirilgan burg'ulash eritmasiga NaCl miqdorini 5% dan 25 % gacha oshirish uning zichligini 2,35 dan 2,40 g/sm³ gacha oshiradi va shartli qovushqoqligini 91 dan 82 s gacha kamaytiradi suv uzatishini esa 3 sm³/30 min dan 7 sm³/30 min gacha oshiradi, korka qalinligi 0,8 mm dan 1,0 mm gacha oshadi eritmaning vodorod ko'rsatkichi 9-8 gacha kamayadi, ishqalanish

koeffitsienti 0,01 dan 0,14 gacha oshiradi, turg'unligini esa 0,04 dan 0,07 g/sm³ gacha oshadi. Bu texnologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi eritmada borayotgan eritma tarkibidagi moylovchi material va polimerlarga tuzning destruksion t'siri bilan izohlanadi. (6-jadval).

Neft va gaz quduqlaridagi haroratni hisobga olib moylovchi material va og'irlashtiruvchi material asosida mineral qatlam suvidan foydalanib ishlab chiqilgan burg'ulash eritmasining texnologik ko'rsatkichlariga haroratning ta'siri tadqiq qilindi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari 6 va 7 jadvallarda keltilirilgan.

Moylovchi material (MBR) va barit asosida lingan burg'ulash eritmasining texnologik ko'rsatkichlari haroratni 100⁰C dan 160⁰C gacha oshirish qovushqoqlik ko'rsatkichiga ijobiy, filtratsion va emulsiyaning elektr turg'unligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. (7-jadval).

7-jadval

Moylovchi material (MBR) va barit asosida olingan burg'ulash eritmasining haroratga chidamliligi


№	Burg'ulash eritmasining tarkibi	Texnologik ko'rsatkichlar						
		γ , g/sm ³	T ₅₀₀ , s	B, sm ³ /30 min	K, mm	pH	K _{tr}	S g/sm ³
1	Dastlabki eritma (Suv + Bentonit (PBG) + KMS+ MBR+Barit)							
